

**TOSHKENT KIMYO-TEXNOLOGIYA ILMIY TADQIQOT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.16/30.12.2019.K/T.87.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

GULBOYEVA DILAFRUZ RUZIBOYEVNA

**SANOAT CHIQINDI SUVLARIDAN Cu(II) VA Zn(II) IONLARINI BA'ZI
AZOT TUTGAN REAGENTLAR YORDAMIDA SORBSION-
SPEKTROSKOPIK ANIQLASH**

11.00.05 – Atrof muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish

**KIMYO FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
Contents dissertation abstract of doctor philosophy (PhD)

Gulboeva Dilafruz Ruziboevna

Sanoat chiqindi suvlaridan Cu(II) va Zn(II) ionlarini ba’zi azot tutgan reagentlar yordamida sorbsion-spektroskopik aniqlash.....3

Гулбоева Дилафруз Рузибоевна

Сорбцион-спектроскопическое определение ионов меди и цинка в промышленных сточных водах с помощью некоторых азотсодержащих реагентов21

Gulbaeva Dilafruz Ruziboevna

Sorption spectroscopic determination of copper and zinc ions in industrial wastewater with the help of some nitrogen-containing reagents.....39

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....43

**TOSHKENT KIMYO-TEXNOLOGIYA ILMIY TADQIQOT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.16/30.12.2019.K/T.87.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

GULBOYEVA DILAFRUZ RUZIBOYEVNA

**SANOAT CHIQINDI SUVLARIDAN Cu(II) VA Zn(II) IONLARINI BA'ZI
AZOT TUTGAN REAGENTLAR YORDAMIDA SORBSION-
SPEKTROSKOPIK ANIQLASH**

11.00.05 – Atrof muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish

**KIMYO FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.PhD/K665 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Qarshi Davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.tktiti.uz) va «ZiyoNet» axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Smanova Zulayho Asanaliyevna
kimyo fanlari doktori., professor

Rasmiy opponentlar:

Muxamedov Qobuljon Gofurovich
texnika fanlari doktori., professor

Aliyeva Muqaddas Tuychiyevna
kimyo fanlari doktori., dotsent

Yetakchi tashkilot:

Termiz davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent kimyo-texnologiya ilmiy tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.16/30.12.2019.K/T.87.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "2" iyul soat 9⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 111116, Toshkent tumani, Ibrat MFY., Sho'robozor. Tel.: (+99895) 144-67-83, E-mail: ooo_tniixt@mail.ru, TKTITI@exat.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent kimyo-texnologiya ilmiy-tadqiqot institutining Axborot resurs markazida tanishish mumkin (№ 2025/13 raqami bilan ro'yxatga olingan Manzil: 111116, Toshkent tumani, Ibrat MFY., Sho'robozor. Tel.: (+99895) 144-67-83, E-mail: ooo_tniixt@mail.ru, TKTITI@exat.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «_12_» iyun kuni tarqatildi.

(2025-yil «_12_» iyundagi 2025/13 raqamli reestr bayonnomasi).



Djalilov A.T.
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi,
k.f.d., prof., akademik

Qiyomov Sh.N.
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash kotibi,
t.f.d., k.i.x.

Beknazarov H.S.
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi, t.f.d., prof.

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda, so‘nggi yillarda sanoat chiqindilari va oqava suvlarini tozalash uchun samarali texnologiyalarga bo‘lgan talab ortib bormoqda. Shu sababli, reagentlarni immobillash, sanoat chiqindi suvlaridan Cu(II) va Zn(II) ionlarini ba’zi azot tutgan reagentlar yordamida iqtisodiy samarador sorbsion-spektroskopik aniqlash, hamda mavjud usullarini optimallashtirishga katta e’tibor qaratilmoqda.

Jahonda kimyo sanoati mahsulotlarini ishlab chiqarishning rivojlanishi bilan sanoat chiqindilari va oqava suvlarini tozalash bo‘yicha ko‘plab ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada organik reagentlarni immobillash asosida yangi sorbentlar olish, ular yordamida metallarni eritmalaridan kompleks hosil qiluvchi sorbsion usullar yordamida ajratish, sorbsiya jarayonida hosil bo‘lgan kompleks birikmalarning tarkibi, tuzilishi, fizik-kimyoviy xossalarini aniqlash, sintez jarayoni texnologiyasini ishlab chiqish hamda mahsulotlar olishning iqtisodiy samaradorligini asoslash muhim ahamiyat kasb etadi.

Respublikamizda kimyo sanoati mahsulotlarini ishlab chiqarishda, xususan, eritmalar tarkibidan metallarni tanlab ajratib olishda hamda sanoat chiqindi suvlarini zararli metallardan tozalash uchun qo‘llaniladigan sorbentlarni olish bo‘yicha ma’lum ilmiy va amaliy natijalarga erishilmoqda. Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida «iqtisodiyotga innovatsiyalarni keng joriy qilish, sanoat korxonalarini va ilm-fan muassasalarining kooperatsiya aloqalarini rivojlantirish, mis va ruxni chuqur qayta ishlash evaziga yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulot turlarini ko‘paytirish»¹ bo‘yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Bu borada, organik reagentlarni immobillash asosida tanlovchan sorbentlar olish va ular yordamida d-metallar sorbsiyasida hosil bo‘ladigan kompleks birikmalarni tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” Farmoni, 2018-yil 25-oktabrdagi PQ-3983-son “O‘zbekiston Respublikasi kimyo sanoatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2019- yil 3-apreldagi PQ-4265-son “Kimyo sanoatini yanada isloh qilish va uning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari ijrosini ta’minlashda hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti natijalari muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining VII. “Kimyoviy texnologiyalar va nanotexnologiyalar” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Sanoat chiqindilari va oqava suvlaridan Cu(II) va Zn(II) ionlarini ba’zi azot tutgan reagentlar yordamida

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60 «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida» farmoni

sorbsion-spektroskopik aniqlash, organik reagentlarni immobillash asosida olinadigan mahsulotlarni o'rganish bo'yicha chet elda E.Horwitz, M.Dietz, J.J.Surman, A.Y.Lyapunov, D.K.Singh, Wang Jinnan, A.Wołowicz, S.Tong, M.H.Morcali, R.P. Kusy, M. Murakami, D.Mendil, P.P.Coetzee, N.N.Basargin, D.V.Salixov, O.V. Kichigin, A.V.Davankov, N.G.Polyanskiy, G.V.Myasoyedova respublikamizda esa U.N.Musayev, M.A.Asqarov, A.T.Djalilov, T.M.Babayev, X.T.Sharipov, X.X.Turayev, M.G.Muxamediyev, Z.A.Smanova, Sh.SH.Daminova, D.A.Gafurova, N.T.Kattayev, D.J.Bekchanov va boshqalar tomonidan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan.

Ushbu tadqiqotlarda polimer matritsaga kompleks hosil qiluvchi organik reagentlarni kovalent va nokovalent immobillash asosida sorbentlar sintezi hamda ularning tadqiqoti bilan kompleks hosil qiluvchi sorbentlarning og'ir metallar analizida qo'llanilishi, sorbsiya jarayonida hosil bo'lgan kompleks birikmalarining tuzilishi va xossalari tahlil qilish bo'yicha tadqiqotlar olib borishgan hamda xelat hosil qiluvchi immobillangan organik reagentlar asosidagi sorbentlarning og'ir metallar ionlari bilan hosil qilgan kompleks birikmalari va ularning tuzilishi yetarli darajada o'rganilmagan. Hozirda mahalliy xomashyolar va sanoat chiqindilari asosida import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishda samarali sorbsion-spektroskopik aniqlash usullarni yaratish hamda amaliyotda qo'llash bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Qarshi davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining IOT-2016-7-21 "α-Aminonitrillar asosida yuqori samarali biologik faol birikmalar sintezini amaliyotga joriy etish" (2016-2018 yy.) mavzusidagi amaliy loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi sanoat chiqindi suvlaridan tarkibidagi Cu(II) va Zn(II) ionlarini, kompleks hosil qiluvchi azot tutgan reagentlar yordamida sorbsion-spektroskopik aniqlash va tozalashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

eritmada mis va rux ionlari bilan tanlab ta'sir etuvchan ba'zi azot tutgan reagentlar yordamida sorbsion-spektroskopik aniqlash, organik reagentlarni immobillash asosida olinadigan mahsulotlarni tadqiq qilish;

ortofosfor kislotasi, polietilen poliamin va pentaeritrit asosidagi azot tutgan ionitlarni olish va ularni fizik-kimyoviy xossalari tadqiq etish;

immobillangan organik reagentlarni olish mexanizmini, ularning kimyoviy va sorbsion-analitik xususiyatlarini aniqlash;

immobillangan organik reagentlarni mis va rux bilan kompleks hosil bo'lishning optimal sharoitlarini va analitik xossalari aniqlash;

IQ-spektroskopiya, spektrofotometriya, skanerlovchi elektron mikroskopiya (SEM), termik analiz usullari, rentgen-fluorescent analiz yordamida kompleks hosil bo'lishning optimal sharoitlari, mexanizmi va birikmalarining tuzilishini aniqlash;

Tadqiqotning obyekti sifatida ortofosfor kislotasi, polietilenpoliamin (PEPA), pentaeritrit asosidagi azot tutgan ionitlar, poliakrilonitril tolasi aurin

asosidagi organik reagentlar oqova suvlar va undagi Cu(II), Zn(II) ionlari, shuningdek atrof-muhit hamda sanoat obyektlari olingan.

Tadqiqotning predmeti azot tutgan ionlarni olish, olingan organik birikmalarning tarkibi, tuzilishi va kimyoviy xossalarini o'rganish, poliakrilonitril tolasiga polietilenpoliaminni modifikatsiyalab olingan PPA-1 polimer tolaga aurin asosidagi organik reagentlarni immobillash hamda eritmalarda reagent-metall ioni sistemasida kompleks hosil bo'lish jarayonlarini, atrof-muhit obyektlarida Cu(II), Zn(II) ionlarini aniqlash va tozalashda qo'llashdan iborat.

Tadqiqotning usullari: Dissertatsiya ishida ba'zi azot tutgan reagentlar yordamida sorbsion-spektroskopik aniqlash usullari, organik reagentlarni immobillash asosida olinadigan mahsulotlarni yangi tarkiblarini yaratish va ularning xossa va xususiyatlarini o'rganishda infraqizil (IQ) spektroskopiya, skanerlovchi elektron mikroskopiya (SEM) va termogravimetrik (TG) tahlili, rentgen-fluorensensiyasi, potensiometriya, spektrofotometriya, kvant-kimyoviy hisoblash usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ortofosfor kislotasi, polietilenpoliamin, pentaeritrit asosidagi azot tutgan yangi selektiv ionlar olingan, ularning kompleks hosil qilishi maqbul sharoitlari, tarkibi va tuzilishi aniqlangan;

aurin va aurin hosilalari asosidagi immobillangan organik reagentlarning kimyoviy va sorbsion-analitik xususiyatlari hamda mis va rux ionlari bilan kompleks hosil qilish mexanizmi ilmiy isbotlangan;

atrof muhitni muhofaza qilishda zararli metall ionlari bilan hosil qilingan kompleks birikmaning tarkibiy nisbati Cu:R=1:2 va Zn:R=1:2 ekanligi hamda kvant kimyoviy hisoblashlar va kompleks zaryadni aniqlash natijalariga asosan kompleksning tuzilishi aniqlangan;

aurin va aurin hosilalari asosidagi immobillangan organik reagentlar bilan atrof muhitni muhofaza qilishda mis va rux kompleks hosil qilishining metrologik va analitik xossalari aniqlangan;

sorbentlarga immobillangan organik reagentlar yordamida mis(II) va rux(II) ionlarini ekologik obyektlar tarkibidan sorbsion-spektrofotometrik aniqlash va tozalashning yangi usullari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

tarkibida azot, fosfor, oltingugurt tutgan reagentlar – aurin va uning hosilalarini polimer tolaga immobillash natijasida kompleks hosil qiluvchi sorbentlar olingan;

organik reagentlarni polimer tolaga immobillash jarayoniga harorat, dastlabki moddalar nisbati, reaksiyaning davomiyligini ta'siri aniqlangan va sorbentlar olish uchun maqbul sharoitlar ko'rsatib berilgan;

Cu(II) va Zn(II) ni aurin-sulfo reagent yordamida aniqlash metodikasining, Ber qonuniga bo'ysunish sohasi Cu uchun 1,0-50,0 mkg, Zn uchun 1,0-18,0 mkg va aniqlashning quyi chegarasi Cu uchun (0,272 mkg/25ml) Zn uchun (0,345 mkg/25ml) ko'rsatildi, Sendel bo'yicha sezgirliigi Cu uchun $S.b.s = 2,219 \cdot 10^{-4}$ mkg/sm² Zn uchun $S.b.s = 2,779 \cdot 10^{-4}$ mkg/sm² bo'lgan spektrofotometrik aniqlash usuli ishlab chiqilgan;

immobillangan organik reagentlar asosida olingan sorbentlarning Cu(II), Zn(II) ionlariga nisbatan, individual hamda aralash eritmalardagi statik va dinamik almashinish sig'implari hamda chiqindi suvlar tarkibidagi metall ionlarini tutib qolish darajasi 85-98% va 90-98% ni tashkil qilishi aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Organik reagentlarni immobillash asosida olinadigan mahsulotlarni struktura va xossalari fizik-kimyoviy tahlilning zamonaviy IQ-spektroskopiya, skanerlovchi elektron mikroskopiya, termogravimetrik tahlil, rentgen-fluorensensiyasi, potensimetriya, spektrofotometriya, kvant-kimyoviy hisoblash usullaridan foydalanilganligi, eksperimental va nazariy natijalarning o'zaro mosligi, natijalarning ishlab chiqarish sharoitlarida tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati kompleks hosil qiluvchi organik reagentlarni polimer tolalarga immobillash natijasida yangi sorbsion sistemalar olinganligi, ushbu sistemalarda Cu(II), Zn(II) ionlarining immobillangan organik reagentlar bilan kompleks birikmalar hosil qilishining maqbul sharoitlari, sorbsiya jarayonida hosil bo'ladigan metalloxelatlarining tuzilishi aniqlanganligi hamda sorbsion-spektrofotometrik aniqlash usullari ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati sanoat chiqindi suvlaridan Cu(II) va Zn(II) ionlarini ba'zi azot tutgan organik reagentlarni immobillash asosida ishlab chiqilgan sorbentlar yordamida sorbsion-spektroskopik aniqlash, hamda mavjud usullarini optimallashtirish hamda ekologik va iqtisodiy samarador texnologiyalarni ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Sanoat chiqindi suvlaridan Cu(II) va Zn(II) ionlarini ba'zi azot tutgan reagentlar yordamida sorbsion-spektroskopik aniqlash bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

aurin va aurin nitrobirikmalari hamda aurin sulfo birikmalari asosidagi immobillangan organik reagentlari "Shurtan neft va gaz qazib chiqarish" boshqarmasida amaliyotga joriy qilingan ("Shurtan neft va gaz qazib chiqarish" boshqarmasining 2024-yil 29-martdagi № П04/IIIЕ-1316 -son ma'lumotnomasi). Natijada, sanoat chiqindi suvlari tarkibidagi Zn(II) va Cu(II) ionlarini har xil muhitda aniqlash va tozalash imkonini bergan;

sanoat chiqindi suvlaridan Cu(II) va Zn(II) ionlarini ba'zi azot tutgan reagentlar yordamida sorbsion-spektroskopik aniqlash usullari "Shurtan neft va gaz qazib chiqarish" boshqarmasida amaliyotga joriy qilingan ("Shurtan neft va gaz qazib chiqarish" boshqarmasining 2024-yil 29-martdagi № П04/IIIЕ-1316 -son ma'lumotnomasi). Natijada, azot tutgan organik reagentlarni immobillash asosida ishlab chiqilgan sorbentlar yordamida sorbsion-spektroskopik aniqlash, hamda mavjud usullarini optimallashtirish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta, jumladan, 2 ta xalqaro va 3 ta Respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruza qilingan va muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 12 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa

doktori (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta ilmiy maqola, jumladan 5 ta Respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 116 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyligi asoslangan, maqsad va vazifalar, tadqiqot ob'ektlari va predmetlari berilgan, tadqiqotning O'zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, uning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etish istiqbollari bo'yicha xulosa qilingan hamda chop etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Mis(II) va rux(II) ionlarini atrof-muhit obyektlarida optik va boshqa fizik-kimyoviy aniqlash usullarining nazariy - metodologik tahlillari”** deb nomlangan birinchi bobida dissertatsiya mavzusi bilan bog'liq bo'lgan organik polimer tolalarni olish, reagentlarni polimer tolalarga immobillash usullari, ularning fizik-kimyoviy va sorbsion xossalari, kompleks birikmalarning tuzilishi, sanoat chiqindi suvlari tarkibidagi og'ir metallar, xususan Zn(II) va Cu(II) ni aniqlash usullarining zamonaviy holati va atrof-muhit ob'ektlari namunalaridan metallarni sorbsion ajratib aniqlashda kompleks birikmalar hosil qiluvchi ionitlarning qo'llanilishi bo'yicha ilmiy izlanishlar muhokama etilgan hamda ushbu bob bo'yicha xulosa keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Tarkibida azot tutgan organik reagentlarni olish va fizik-kimyoviy xossalarini tadqiq etish”** deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqotda qo'llaniladigan kimyoviy moddalarning xususiyatlari, dastlabki moddalar va tadqiqot usullari, eritmalarini tayyorlash, organik reagentlar va sorbentlarni olish uslublari, azot tutgan kompleks hosil qiluvchi ionitlarni elektron mikroskop analizini tadqiq etish, tolali tashuvchilarning xususiyatlari va immobillashni maqbul sharoitlari, eritmalar tayyorlash, standartlash uslublari, sorbsiya-desorbsiya jarayonini o'rganilgan.

Sintez qilib olingan (4-[bis(4-gidroksifenil)-metilden]-siklogeksa-2,5-dien-1-on) - aurinning nitrozo-, sulfobirikmalari hamda boshlang'ich modda aurinni tuzilishi IQ-spektroskopiyasi yordamida tahlil qilingan. Unga ko'ra IQ spektrning $3000-2900\text{ cm}^{-1}$ va $770-690\text{ cm}^{-1}$ sohaslarida $-\text{CH}$ joylashgan, aromatik birikmalarni asosiy yutilish chiziqlari $3000-2900\text{ cm}^{-1}$ oraliklarida aniqlangan. Gidroksil ($-\text{OH}$) guruhining tebranish chastotasi fenil guruhining deformatsiyali tebranish chastotalari sohasida, boshqa guruhlar $1228-1134\text{ cm}^{-1}$ va $1450-1300\text{ cm}^{-1}$ sohada, aromatik halqadagi qo'sh bog'li $-\text{C}=\text{C}$ chiziqlarni o'zgaruvchan bo'lgan $1600-1500\text{ cm}^{-1}$ oraliqdagi sohalarda namoyon bo'lgan. Bundan tashqari $1583-1568\text{ cm}^{-1}$ va


1498-1442 cm^{-1} sohalarda o'zgaruvchan intensivlikdagi 1600-1450 cm^{-1} oraliqda yutilishlarda kuchli -C=O bog'lar namoyon bo'lishi o'rganilgan.

1-jadval

Sintez qilingan reagentlarning tuzilishi

Aurin	Aurin (NO) ₂	Aurin(SO ₃ H) ₂

Sintez qilib olingan aurinning nitroza birikmasini -N=O spektr ko'rsatkichlarida boshlang'ich modda aurinni strukturasiidan nitrozo birikmalari hosil qilganligi bilan farqlanadi.



Unga ko'ra ushbu -N=O guruhlarini 1352 cm^{-1} -1444 cm^{-1} va 1284-1220 cm^{-1} sohalarda yutilishlari mavjudligi aniqlangan.

Polietilenpoliamin (PEPA) asosidagi kompleks birikmalar hosil qiluvchi ionitlarni olinishi va fizik-kimyoviy xossalari o'rganilgan, shuningdek reaksiyon aralashma asosida pentaeritrit bilan ortofosfor kislotasi asosidagi reaksiya natijasida hosil bo'lgan ortofosfor kislotaning yuqoridagi organik efirlari hosil bo'lgan. IQ spektroskopiyaga tahlillarga asosan xarakterli bo'lgan yutilish chiziqlari -CH_2 -guruhlariga xos bo'lgan 2806-2895 cm^{-1} va 1465,90 cm^{-1} sohalarda aniqlangan. Shu bilan birga 3400-2890 cm^{-1} yutilish sohalarda $\text{-CH}_2\text{-OH}$ guruhlariga xos chiziqlar, 1132-1373 cm^{-1} yutilish sohalarda P=O , C-O va C-OH guruhlariga xos intensivlikdagi bog'lar, 846,75-970,19 cm^{-1} sohada $(\text{RO})_3\text{P}$ va P-O-C guruhlariga xos chuqqilar aniqlangan.


Namunalarni skaner elektron mikroskop (SEM) tahlillari natijasida ularning sirtida immobillangan aurin xosilalari va kompleks birikmalar bir xilda tarqalganligini, sirt yuzada kattalashtirilgan elektron mikroskop tahlil zarrachalarni tarqalishi aniq hamda turli sifatsiz holatlar yo'qligi aniqlangan.

Sorbsion-spektroskopik tadqiqotlarda PAN asosida olingan PPA-1 ion almashtiruvchi matritsa asosida metall ionlariga selektiv bo'lgan sorbentlar sintezi

PAN asosidagi og'ir metall ionlariga selektiv bo'lgan sorbent olish maqsadida nitron tolasini polietilenpoliamin bilan modifikatsiyalangan anionit (PPA-1)dan foydalanilgan.

Shuningdek, tolali tashuvchilarning xususiyatlari va immobillashni optimal sharoitlarini tanlash, immobillangan reagentlar va ular hosil qilgan kompleks birikmalarning termik tavsifi o'rganilgan. Termogravimetrik analiz egri chizig'i va differensial termik analiz egri chizig'ining tahlili namunalarning 3-oraliq parchalanishda eng yuqori massa yo'qotilishini ko'rsatadi, ya'ni bu oraliqda massaning 46,35% yuqotilgan. DTA va TGA tahlillari natijasida olingan natijalarga asoslanib, jarayonning turli harorat oralig'i uchun kinetik parametrlari aniqlangan hamda TGA analizda 604,23 °C haroratgacha umumiy massaning 79,38 % miqdori termik parchalanish hosil bo'lganligi tahlillar orqali aniqlangan.

Aurin, aurin-nitro va aurin-sulfo reagentlarining turli metall ionlari bilan sifat reaksiyalarini o'rganilgan hamda rux(II) va mis(II) ning aurin-sulfo reagenti bilan kompleks birikmasining optimal nur yutishini tanlangan (1-rasm).



1-rasm. Aurin-(SO₃H)₂ va uning Zn(II) va Cu(II) ionlari bilan hosil qilgan komplekslarining optimal nur yutish to'liq uzunligini aniqlash grafi.

Kompleks birikma optik zichligi (OZ)ning pH ga bog'liqligi o'rganilgan, unga ko'ra aurin-sulfoning Zn(II) bilan kompleksi uchun pH=3,5-4,5 oralig'ida, Cu(II) uchun pH=5,2-6,0 oralig'ida kuzatilgan va optimal muhit sifatida Zn(II) kompleksi uchun pH=4,0 Cu(II) uchun pH=5,60 tanlangan, hamda shu muhitda OZ yuqori analitik signalga ega bo'lishi kuzatilgan. Shu bilan birga, spektrofotometrik uslubda, kompleks birikmalarning OZ qiymati Zn(II)-aurinsulfo kompleksi uchun 110 daqiqagacha, Cu(II)-aurinsulfo kompleksi uchun 120 daqiqagacha barqarorligi topilgan.

Dissertatsiyaning “Aurin-(SO₃H)₂ reagentning PPA-1 asosidagi tolaga immobillanishining optimal sharoitlarini tanlash” deb nomlangan uchinchi bobida immobillangan aurin-sulfo reagentining Cu(II) va Zn(II) ionlari bilan kompleks birikmalarining IQ-spektral tadqiqoti, rentgen-fluorescent tahlili, immobillangan organik reagent (OR) va u hosil qilgan kompleks birikmalarning

termik tavsifi, metall ionlarining sorbsiyasi, statik sharoitda polimer matritsadan mis(II) ionining desorbsiyasini, kompleks birikma OZning muhit (pH)ga bog'liqligi va komponentlarning quyilish tartibi aniqlangan.

Aurin-(SO₃H)₂ reagenti uchun $\lambda_{\max}=440$ nm PPA-aurin-(SO₃H)₂ immobillanganda, Cu(II) va Zn(II) bilan kompleks hosil bo'lishi esa $\lambda_{\max}=560$ nm va 540 nm da kuzatilgan. Bunda kompleks hosil bo'lish hisobiga $\Delta\lambda$ 100 va 120 nm kontrastlikka ega ekanligi aniqlangan.

Immobilangan aurin-(SO₃H)₂ mis (II) ion bilan kompleksi pH=4-6 da, aurin-(NO)₂ esa 5-7 oralig'ida maksimal analitik signalga ega bo'lishi kuzatilgan.

Tadqiqotlar davomida mis va rux ionlarining aurin-(SO₃H)₂ reagenti bilan hosil qilgan immobillangan kompleksining spektral tavsifi o'rganildi (2-jadval).

2-jadval

Mis va rux ionlarining aurin-(SO₃H)₂ reagenti bilan hosil qilgan imobillangan kompleksining spektral tavsifi

Kompleks rangi	pH	λ_{\max} , R	λ_{\max} , komp.	$\Delta\lambda$	ΔA	E_{haq}	Sendel bo'yicha sezgirlik 10^{-4} mkg/sm ²
Mis (binafsha)	5,8	440	560	100	0,17	45000	2,219
Rux (Qizg'ish)	5,0	440	540	120	0,26	54180	2,779

Olingan natijalardan ko'rinib turibdiki, reaksiya birmuncha kontrastlikka ($\Delta\lambda=120$ nm) va yuqori sezgirlikka ($S.b.s = 2,219 \cdot 10^{-4}$ va $2,779 \cdot 10^{-4}$) ega ekan.

Dinamik sharoitda polimer tashuvchini takroran qo'llash imkoniyati ham aniqlandi. 1,5 sm diametrli xromatografik kolonkaga 0,2 g tolali polimer joylashtirildi. Uskunadagi sorbentlar ustunining balandligi 4,0 sm ni tashkil qiladi. So'ngra 25 sm³ standart mis(II) eritmasi (100 mkg/sm³ konsentratsiyali) o'tkazildi.

3-jadval

Mis va rux ionlarining aurin-(SO₃H)₂ reagenti bilan hosil qilgan immobillangan kompleksining spektral tavsifi

t/r	V, sm ³	A _{o'rt} Sorbsiya -dan so'ng	C _{Cu²⁺} mkg eritmada	C _{Cu²⁺} mkg sorbentdagi	R, % sorbsiya darajasi	V, sm ³	A _{o'rt} Desorb siyadan so'ng	C _{Cu²⁺} mkg desorb-siyadan so'ng	Y, % desorb. darajasi
1	1,5	0,406	854	1148	57,4	0,5	0,164	1100	94,8
2	1,0	0,491	1681	321	16,1	0,5	0,052	320	99,0
3	1,0	0,501	1701	301	15,1	0,5	0,047	280	94,3

Parallel ravishda 5 ta kolonkada mis(II) ionining sorbsiyadan oldin va keyin konsentratsiyasi suvli faza bilan nazorat qilingan, mis(II) ionining xloroformdagi qo'rg'oshin dietilditiokarbamat Rb(DDTK)₂ bilan ekstraksiyasi va fotometrik usulda aniqlandi. Sorbent fazadagi mis(II) ionining miqdori suvli fazadagi mis(II) ionining boshlang'ich va muvozanat konsentratsiyasi o'rtasidagi farqdan hisoblab topilgan. II ustunda 5 ml li 0,5 M li nitrat kislota bilan desorbsiya olib borilgan, elyuat 100 ml li kolbaga solinib, suv bilan belgisigacha keltirildi va aralastirilgan,

so'ngra alikvot (0,5-1,0 ml) olindi va mis(II)ni CHCl_3 da $\text{Rb}(\text{DDTK})_2$ bilan reaksiya orqali aniqlangan (3-jadval).

Mazkur jadvalga muvofiq olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, toladan mis(II) ionlarini desorbsiyalash uchun HNO_3 0,5 M mos keladi; H_2SO_4 0, 2 M; HCl 0,1. Desorbsiya 90-100% ni tashkil qiladi. Ammo tolani qayta tiklash faqat 2% li NaOH eritmasi bilan ishlov berish orqali amalga oshirildi (4-jadval).

4-jadval

Immobilangan aurin-(SO_3H)₂ mis va rux ionlari bilan kompleksini optimal sharoitlarini aniqlash natijalari

№	Optimal sharoitlari	Mis (II) kompleksi	Zn (II) kompleksi
1	To'lqin uzunligi (λ), nm	560	540
2	Kyuveta qalinligi (l) ,sm	1,0	1,0
3	Konsentratsiya, mol/l	$1.0 \cdot 10^{-4}$	$1.0 \cdot 10^{-4}$
4	Muhit (pH)	5,60	4,0
5	Bufer eritma	universal	universal
6	Vaqt, minut	7	4-6
7	Buger-Lambert-Ber qonuniga o'ysinishi, mkg/ml	1-50	1-18
8.	Sendel bo'yicha sezgirlik mkg/sm ²	$2,219 \cdot 10^{-4}$	$2,779 \cdot 10^{-4}$
9.	Aniqlashning quyi chegarasi Q_{\min} , mkg/25 ml	0,272	0,345
10.	Kompleks tarkibi	1:2	1:2

Shuningdek, kvant kimyoviy hisoblashlar amalga oshirilgan hamda aurin (SO_3H)₂ (4-[bis-(4-gidroksi-3-sulfofenil)-metilden siklogeksa-2,5-dien-1-on)ning LUMO dagi elektron zichligi O-H va - SO_3H guruhlaridagi kislorod va oltingugurt atomlarida joylashganligi, bu esa reagent uchun ham LUMO va HUMO holatlar energiyasi bir-biridan katta farq qilishi, shu sababli -OH ham kuchli maydon hosil qilishi va Pirsonning "qattiq va yumshoq kislotalar va asoslar" prinsipiga ko'ra, O-H va - SO_3H guruhlaridagi kislorod va oltingugurt atomlari spektator reagent sifatida raqobatlashishi, -OH guruhidagi kislorod qiymati yuqoriligi metall bilan koordinatsion bog' orqali komplekslarni hosil qilishi mumkinligi keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Mis va ruxni sorbsion-spektroskopik aniqlash uslubini analitik qo'llash va iqtisodiy samaradorligini baholash**" deb nomlangan to'rtinchi bobida immobilangan reagentlarning sorbsion xossalarini tadqiq etish, azot tutgan organik reagentlarni olishning samarador texnologiyasini ishlab chiqish iqtisodiy samaradorligini ishlab chiqilgan. Olingan natijalardan ko'rinib turibdiki, Zn(II) ionini sun'iy aralashmalar tarkibidan spektrofotometrik aniqlashda nisbiy standart chetlanish 0,0087 dan Cu(II) ionini aniqlashda 0,0152 dan oshmadi, hamda ushbu ishlab chiqilgan uslub bilan Cu(II) va Zn(II) ni sun'iy aralashmalar va shunga yaqin tarkibli tabiiy ob'yektlardan aniqlash mumkinligini ko'rsatadi.

Mis(II) va rux(II) ionlarini sanoat qotishmalari tarkibidan aniqlash muhim amaliy ahamiyatga ega bo'lib, metallurgiyaga ixtisoslashgan sanoat korxonalarida ishlab chiqarish xom ashyosi va toza mahsulotlarning tarkibini yuqori aniqlikda monitoring qilib borish, bu yo'nalishda iqtisodiy jihatdan arzon uslublardan foydalanish muhim o'rin tutadi. Shu maqsadlarda mis va rux ionlarining mikromiqdorlarini aurin asosidagi organik reagentlar yordamida sanoat

qotishmalarining standart namunalaridan spektrofotometrik aniqlash uslublari ishlab chiqildi (6-7-jadval).

5-jadval

Sun'iy aralashma tarkibidan mis (II) va rux(II) ionlarini aniqlash
($C_{Cu^{2+}} = 50,0$ mkg KFK-3, $l = 1,0$ sm, $\lambda_{max} = 560$ nm, pH = 4,0, n=5, P=0,95, tpk=2,78)

Begona ionlarning nisbati Me: 50mkg	\bar{A}	Topilgan Cu^{2+} mkg X_i	\bar{X}_i	$X_i - X_i$ o'rt	$(X_i - \bar{X}_i)^2$	S	Sr	$\bar{X}_i \pm \Delta X$
mis(II) ionlarini aniqlash								
Mg ²⁺ (5)	0,151	48,50		-1,00	1,0000			
Pb ²⁺ (5)	0,155	49,17		-0,33	0,1089			
Cl ⁻ , SO ₄ ²⁻ (150)	0,156	49,50	49,51	0,00	0,0000	0,7491	0,0152	49,50±0,93
	0,156	49,84		0,34	0,1156			
NO ₃ ⁻ (500)	0,156	50,51		1,01	1,0201			
	0,157							
Cd ²⁺ (0,1)								
rux(II) ionlarini aniqlash								
K ⁺ , Na ⁺ , NH ₄ ⁺ , Zn ²⁺ , (100);	0,189	20,17		0,00	0,0000	0,2640	0,0087	20,16±0,33
Al ³⁺ (10);	0,188	20,00		-0,17	0,0289			
Mg ²⁺ (5);	0,191	20,40	20,17	0,33	0,1089			
Cl ⁻ , SO ₄ ²⁻ (150)	0,187	19,83		-0,34	0,1156			
	0,190	20,33		0,16	0,0256			
NO ₃ ⁻ (500)								
Co ²⁺ (0.5)								

Natijalar shuni ko'rsatadiki, ishlab chiqilgan spektrofotometrik usullar bilan Cu(II) va Zn(II)ni Aurin-sulfo yordamida aniqlash uchun yuqori aniqlikdagi natijalar olindi.

Optimal sharoitlar yuqori aniqlik va selektivligi va belgilangan konsentratsiyalarning past chegarasi hamda nisbiy standart chetlanish barcha hollarda 0,026 dan oshmasligi bilan tavsiflanadi, bu esa ishlab chiqilgan usullar uchun belgilangan metrologik parametrlar chegaralariga muvofiqligini ko'rsatadi.

Yuqorida keltirilgan jadval natijalaridan ma'lumki, mis(II) va rux(II) ionlarini turli hududlardagi sanoat chiqindi va oqova suvlarining filtratlaridan aniqlashda ishlab chiqilgan uslubning nisbiy standart chetlanishi mis(II) uchun 0,035 dan, rux(II) uchun esa 0,040 dan oshmadi.

Ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, ishlab chiqilgan Cu(II) va Zn(II)ni biologik obyektlar tarkibidan fotometrik aniqlash uslubi natijalari to'g'ri va qayta takrorlanuvchan bo'lib, usulning nisbiy standart chetlanishi (Sr) 0,016 dan oshmadi. Tajriba sinov ishlari natijasida sintez qilingan sorbentlar bilan sanoat chiqindi suvlari tozalandi va ijobiy natijalar olindi.

Sanoat qotishmalarining standart namunalaridan Zn(II) ionini spektrofotometrik aniqlash natijalari (KFK-3, $\lambda=560$ nm, $l=1,0$ sm, Zn^{2+} pH-4.0, P=0,95)

№	Olingan alikvot, V ml	Alikvot rux(II) miqdori, mkg	A	Topilgan Zn ²⁺ , mkg, Xi	$\bar{X}_i \pm \Delta X$	$X_i - \bar{X}$	$(X_i - \bar{X})^2$	S	S _r
Qotishma markasi AK12MK 203-1									
1	1	13,0	0,204 0,208 0,202	12,64 13,31 12,31	12,75±1,2 66	-0,11 0,56 -0,44	0,0121 0,3136 0,1936	0,509 6	0,01 6
2	1,25	21,25	0,256 0,253 0,258	21,26 20,76 21,59	21,20±1,0 33	0,06 -0,44 0,39	0,0000 0,1936 0,1521	0,415 7	0,02 6
3	1,5	19,5	0,307 0,304 0,301	19,70 19,21 18,71	19,21±1,2 30	0,49 0,00 -0,50	0,2401 0,0000 0,2500	0,495 0	0,01 0
Qotishma markasi AK12MK 203-5									
1	3	15,0	0,278 0,280 0,273	14,90 15,23 14,07	14,7±1,49	0,20 0,53 -0,63	0,0400 0,2809 0,3969	0,599 1	0,01 3
2	3,2	18,0	0,302 0,297 0,294	18,87 18,05 17,55	18,16±1,6 6	0,71 -0,11 -0,61	0,5041 0,0121 0,3721	0,666 4	0,01 0
3	3,3	19,5	0,302 0,306 0,311	18,87 16,75 20,36	18,66±1,0 5	0,21 -1,91 1,70	0,0441 3,6481 2,8900	1,814 1	0,01 4
Qotishma markasi M99-5									
1	0,5	20,5	0,132 0,135 0,129	20,73 21,23 20,23	20,73±1,2 42	0,00 0,50 -0,5	0,0000 0,2500 0,2500	0,500	0,02 4
2	1,0	21,0	0,244 0,248 0,251	19,27 19,93 20,43	19,88±2,9 90	-1,61 0,05 0,55	2,5921 0,0025 0,3025	1,203 6	0,02 2
3	1,1	15,1	0,275 0,279 0,282	14,40 15,07 15,56	15,01±1,4 47	-0,61 0,06 0,55	0,0036 0,0009 0,0009	0,058 23	0,01 3
4	1,2	19,2	0,304 0,307 0,301	19,21 19,70 18,71	19,21±1,2 30	0,00 0,49 -0,50	0,0000 0,2401 0,2500	0,045 3	0,00 7

Xususan, suv tarkibidagi Cu(II) va Zn(II) ionlarini ajratish samaradorligi bir necha barobar yuqori ekanligi aniqlandi. Shuningdek, sorbent regeneratsiyasi ham jarayonning iqtisodiy samaradorligini yanada oshiradi.

Tadqiqot davomida mis(II) va rux(II) ionlarini mikromiqdorini ishlab chiqarish korxonalarida chiqindi suvlari tarkibidan aniqlash va tozalash amalga (8-jadval) oshirildi.

7-jadval

Sanoat qotishmalarining standart namunalaridan Cu(II) ionini spektrofotometrik aniqlash natijalari (KFK-3, $\lambda=560$, $l=1$ sm, Cu^{2+} pH-5.6, Zn^{2+} pH=4.0, R=0,95)

No	Olingan alikvot, V ml	Alikvot mis(II) miqdori, mkg	A	Topilgan Cu^{2+} , mkg, X_i	$\bar{X}_i \pm \Delta X$	$X_i - \bar{X}$	$(X_i - \bar{X})^2$	S	S_r
M115-1 (N9, NX98)									
1	1,0	44,14	0,139 0,136 0,141	44,16 43,16 44,83	44,03±2,0 9	0,11 -0,89 0,78	0,0121 0,7921 0,6084	0,85	0,0 19
2	1,2	43,12	0,139 0,137 0,135	44,16 43,49 42,82	43,46±1,6 7	0,67 0,00 -0,67	0,4489 0,0000 0,4489	0,68	0,0 15
3	98	57,40	0,184 0,178 0,176	59,19 57,18 56,52	57,61±3,4 5	1,56 -0,45 -1,11	2,4336 0,2025 1,2321	1,40	0,0 24

8-jadval

Mis(II) va rux(II) ionlarini mikromiqdorini ishlab chiqarish korxonalarini chiqindi suvlari tarkibidan aniqlash natijalari ($C=9,95 \cdot 10^{-4}$ M; $\lambda=560$ va 540 nm; pH=4,0 va 5,60; $l=1$ sm³; n=3; R=0,95)

Hudud	Topilgan Su(II), mkg/ml ($\bar{x} \pm \Delta X$)	S	S_r	Topilgan Zn(II), mkg/ml ($\bar{x} \pm \Delta X$)	S	S_r
Angren	9,11±0,84	0,34	0,035	9,77±1,02	0,385	0,040
Navoiy	9,23±0,072	0,13	0,013	9,95±0,18	0,323	0,034
Qashqadaryo	9,63±0,059	0,11	0,012	9,87±0,11	0,165	0,018
Surxondaryo	9,35±0,018	0,16	0,019	9,33±0,14	0,391	0,040

Sanoat chiqindi suvlaridan ba'zi azot tutgan reagentlar yordamida tozalash va ishlab chiqarish uchun qaytarish dolzarb muammolardan biridir. Qashqadaryo viloyati suv havzalarida og'ir metall ionlari bilan ifloslanishiga ishlab chiqarish sanoatlari ko'pligi hamda antropogen ta'sirlardir. Mis va rux sanoatda keng qo'llaniladigan muhim metallar hisoblanadi. Ular elektrik uskunalardan tortib, turli xil sanoatdagi qo'llanilishlarga doimo talabda. Biroq, ushbu metallarning tabiatga chiqindisi yoki yuqori konsentratsiyada uchrashining atrof-muhit va inson salomatligiga bo'lgan salbiy ta'sirini tushunish juda muhim.

Mis(II) ionlarini mikromiqdorini murakkab aralashmalar, ishlab chiqarish korxonalaridan chiqindi sifatida oqib chiqadigan oqova suvlar hamda real ob'ektlar tarkibidan aniqlashda ishlab chiqilgan spektrofotometrik aniqlash uslublarini aniqligi, sezgirligi va tanlab ta'sir etuvchanlik natijalari GOST 54276-2010 va GOST 54276-2010 standartida keltirilgan natijalariga mosligi aniqlandi. Oqova suvlar hamda real ob'ektlar tarkibidan, kimyoviy usul bilan qayta ishlashdan olingan eritmalar tarkibidagi mis(II) ionlarini aniqlashda spektrofotometrik analiz uslubidan foydalanildi.


9-jadval

Qashqadaryo daryolari suvlari tarkibining tahliliy natijalari(2021-2023 yy.)

t/r	Komponent-lar nomi	O'lchov birligi	Sifat ko'rsatkichi							Qashqadaryo (kitob) 04.02.2021y.
			Qashqadaryo (Ch.S.O.) kirish 04.02.2021y.	Qizil daryo (yakkabog') 04.02.2021y.	Tanxoz daryo (shaxrisabz) 04.02.2021y.	Qashqadaryo (qarshi) 04.02.2021y.	Oq daryo (kitob) 04.02.2021y.	Qashqadaryo (Ch.S.O.) chiqish 04.02.2021y.		
2021 y.										
1.	Cu ²⁺	mg/l	0,004	0,001	0,001	0,002	0,001	0,002	0,002	
2.	Zu ²⁺	mg/l	0,005	0,008	0,005	0,006	0,007	0,009	0,057	
2022 y.										
	Cu ²⁺	mg/l	0,006	0,002	0,003	0,004	0,003	0,004	0,002	
	Zu ²⁺	mg/l	0,005	0,008	0,005	0,006	0,007	0,009	0,057	
2023 y.										
	Cu ²⁺	mg/l	0,008	0,004	0,005	0,006	0,005	0,006	0,004	
	Zu ²⁺	mg/l	0,005	0,008	0,005	0,006	0,007	0,009	0,057	

10-jadval

Atrof muhit Cu va Zn metallarining yillar kesimida atrof muhitga chiqarilishi



Shu o'rinda Qashqadaryo viloyati suv xavzalarini kimyoviy tahlil qilindi va natijada mis ionlarini yillar kesimida konsentratsiyasi ortib borganligini kuzatildi. Qashqadaryo viloyati suv havzalarida og'ir metall ionlari bilan ifloslanishiga ishlab chiqarish sanoatlari ko'pligi hamda antropogen ta'sirlardir. Mis va rux sanoatda keng qo'llaniladigan muhim metallar hisoblanadi. Ular elektrik uskunalardan

tortib, turli xil sanoatdagi qo‘llanilishlargacha doimo talabda. Biroq, ushbu metallarning tabiatga chiqindisi yoki yuqori konsentratsiyada uchrashining atrof-muhit va inson salomatligiga bo‘lgan salbiy ta‘sirini tushunish juda muhim.

Shu o‘rinda Qashqadaryo viloyati suv xavzalarini kimyoviy tahlil qilindi va natijada mis va rux ionlarini yillar kesimida konsentratsiyasi ortib borganligini kuzatildi.

11-jadval


Qashqadaryo viloyati suv xavzalarini kimyoviy tahlili (Cu⁺²)

Sifat ko‘rsatkichi.	04.02.2021 y.	04.02.2022y.	04.02.2023y.
Qashqadaryo(CH.S.O.) kirish	0,004mg/l pH=6.2	0.006mg/l pH=8.2	0,008 mg/l pH=10,2
Qizil daryo (yakkabog‘)	0,001mg/l pH=5.9	0.002mg/l pH=7.9	0,004 mg/l pH=9,9
Tanxoz daryo (shaxrisabz)	0,001mg/l pH=5.4	0.003mg/l pH=7.4	0,005 mg/l pH=9,4
Qashqadaryo (qarshi)	0,002mg/l pH=6.4	0.004mg/l pH=8.4	0,006 mg/l pH=10,4
Oq daryo (kitob)	0,001mg/l pH=5.9	0.003mg/l pH=7.9	0,005 mg/l pH=9,9
Qashqadaryo (CH.S.O.) chiqish	0,002mg/l pH=6.5	0.004mg/l pH=8.5	0,006 mg/l pH=10,5
Qashqadaryo (kitob)	0,001mg/l pH=5.8	0.002mg/l pH=7.8	0,004 mg/l pH=9,8

Jumladan, “Shurtan neft va gazni qazib chiqarish boshqarmasida ishlab chiqarishdagi suvlardan bir kunda 6000 m³ chiqindi suv hosil bo‘ladi. Tadqiqot natijalari asosida yaxshi natijalarga ega bo‘lgan polietilenpoliamin asosidagi kompleks birikmalar hosil qiluvchi ionitlar olingan.

Ushbu usul bilan kompleks birikmalar hosil qiluvchi ionitlar olish uchun reaktor (4) ga Ortofosfor kislotasi (1) va asta sekinlik bilan pentaeritrit (2) sig‘imlardan solinib, 130-150oC haroratda 2 soat davomida (4) reaktorda maxsus aralashtirgich yordamida aralashtirildi va och sariq rangli oquvchan moysimon pH=5 muhitdagi modda olindi.

Reaktor (4) da aralashtirilayotgan ortofosfor kislotasi va pentaeritrit asosida olingan qo‘shimchalarni filtrlash (5) amalga oshirildi va immobillash uchun tayyorlangan (3) PEPA-1 bilan ishlov berildi. Hosil bo‘lgan mahsulot (7) ga qabul qilinadi. Hosil bo‘lgan aralashma qo‘yiq holdagi sarg‘ish moddani tashkil etib pH=7 ekanligi aniqlangan.



1-Ortofosfor kislota uchun sig'im; 2- pentaeritrit uchun sig'im; 3- PEPA uchun sig'im; 4- reaktor (ionitlar hosil qiluvchi); 5-filtrlash jarayoni; 6- Immobilash uchun reaktor; 7-tayyor mahsulot; 8- suv uchun sig'im, 9-qattiq moddalar uchun sig'im.

2-rasm. Kompleks birikmalar hosil qiluvchi ionitlar olishning texnologik sxemasi.

XULOSALAR

1.Ortofosfor kislota, polietilenpoliamin, pentaeritrit asosidagi azot tutgan yangi selektiv ionitlar olingan, ularning kompleks hosil qilishining optimal sharoitlari tanlangan hamda fizik-kimyoviy tavsiflari tadqiq etilgan mis(II) ionining aurin-sulfo reagenti bilan rangli kompleksining hosil bo'lish optimal sharoitlari: nur yutish maksimumi, eritma pH i, reagent miqdori, bufer tarkibiga bog'liqligi, vaqtga nisbatan barqarorligi va quyilish tartibi o'rganildi.

2.Kompleks biriklarning IQ spektroskopiya va elektron spektroskopiya natijalari asosida immobilash aurin va uning xosilalari reagentlarini nitroza va sulfo guruxi orqali sodir bo'lishi, kompleks xosil bo'lishida reagent metall tarkibi aniqlandi.

3.Aurin-sulfo reagenti va uning mis(II) ioni bilan hosil qilgan kompleksining yutilish spektrlarini optimal sharoitlarda aniqlangan va spektral tavsiflar yutilish maksimumlarini ($\lambda_{\max}(\text{HR})=440 \text{ nm}$, $\lambda_{\max}(\text{CuR}_2)=560 \text{ nm}$, $\lambda_{\max}(\text{ZnR}_2)=540 \text{ nm}$) kontrastligi $\Delta\lambda=120$ va 100 nm , kompleksning haqiqiy molyar so'ndirish koeffitsienti, muvozanat doimiysi Tolmachyovning grafik usulida aurin-sulfo reagentinig molyar so'ndirish koeffitsiyenti (CuR_2 uchun $\varepsilon_{\text{haq}}=45000$; ZnR_2 uchun $\varepsilon_{\text{haq}}=54000$) aniqlandi.

4.Hosil qilgan kompleks birikmaning tarkibiy mollar nisbati $\text{Cu}:\text{R}=1:2$ va $\text{Zn}:\text{R}=1:2$ ekanligi hamda, kvant kimyoviy hisoblashlar va kompleks zaryadni aniqlash natijalariga asosan kompleksning taxminiy formulasi taklif qilindi.

5. Cu(II) va Zn(II)ni aurin-sulfo reagent yordamida aniqlash metodikasining, Ber qonuniga bo'ysunish sohasi Cu uchun 1,0-50,0 mkg, Zn uchun 1,0-18,0 mkg va aniqlashning quyi chegarasi Cu uchun (0,272 mkg/25ml) Zn uchun (0,345 mkg/25ml) ko'rsatildi, Sendel bo'yicha sezgirligi Cu uchun $S.b.s = 2,219 \cdot 10^{-4}$ mkg/sm² Zn uchun $S.b.s = 2,779 \cdot 10^{-4}$ mkg/sm² bo'lgan spektrofotometrik aniqlash metodi tavsiya etildi.

6. Ishlab chiqilgan metodning tanlab ta'sir etuvchanligi, qayta takrorlanuvchanligi va to'g'riligi qator metall ionlari va anionlar ishtirokida "kiritildi-topildi" usuli yordamida va sun'iy aralashmalar, sanoat qotishmalari hamda Qashqadaryo oqava suv havzalari analiz natijalarida nisbiy standart chetlanish ($S_r = 0,040$) dan oshmadi, immobillangan organik reagentlar asosida olingan sorbentlarning Cu(II) va Zn(II) ionlarini aurin-sulfo reagent yordamida aniqlash usulini yuqori sezgir va tanlab ta'sir etuvchanligi tahlil qilinib sanoat va oqova chiqindi suvlar tarkibidagi metal ionlarini tutib qolish darajasi 85-98% va 90-98% ni tashkil qilishi aniqlandi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.16/30.12. 2019.К/Т.87.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ НАУЧНО-
ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОМ ИНСТИТУТЕ ХИМИЧЕСКОЙ
ТЕХНОЛОГИИ**

КАРШИНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

ГУЛБОЕВА ДИЛАФРУЗ РУЗИБОЕВНА

**СОРБЦИОН-СПЕКТРОСКОПИЧЕСКОЕ ОПРЕДЕЛЕНИЕ ИОНОВ
МЕДИ И ЦИНКА В ПРОМЫШЛЕННЫХ СТОЧНЫХ ВОДАХ С
ПОМОЩЬЮ НЕКОТОРЫХ АЗОТСОДЕРЖАЮЩИХ РЕАГЕНТОВ**

**11.00.05–Охрана окружающей среды и рациональное использование природных
ресурсов**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО ХИМИИ НАУКАМ**

Ташкент – 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) по химическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве Высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером B2024.3.PhD/K665

Диссертация выполнена в Каршинском государственном университете

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещён на веб-странице по адресу www.tktiti.uz и информационно-образовательном портале «ZiyoNet» по адресу www.zivonet.uz


Научный руководитель:	Сманова Зулайхо Асаналиевна доктор химических наук, профессор
Официальные оппоненты:	Мухамедов Кобулжон Гофурович доктор технических наук, профессор Алиева Мукаддас Туйчиевна доктор химических наук, доцент
Ведущая организация:	Термезский государственный университет

Защита диссертации состоится «2» июля 2025 г. в « 9⁰⁰ » часов на заседании Ученого совета DSc.16/30.12.2019.K/T.87.01 при Ташкентском научно-исследовательском институте химической технологии по адресу: 111116, Ташкентская область, Ташкентский р.-н, ул. Шурабазар, тел: (+99895) 144-67-83, E-mail: ooo_tniixt@mail.ru, TKTITI@exat.uz.

Диссертация зарегистрирована в Информационно-ресурсном центре Ташкентского научно-исследовательского института химической технологии за № 2025/13, с которой можно ознакомиться в ИРЦ (111116, Ташкентская область, Ташкентский р.-н, п.о.Шурабазар, тел: (+99895) 144-67-83, E-mail: ooo_tniixt@mail.ru, TKTITI@exat.uz).

Автореферат диссертации разослан «12» июня 2025 года.
(протокол рассылки № 2025/13 от «12» июня 2025 года).




А.Т. Джалилов
Председатель научного совета
по присуждению учёных степеней,
д.х.н., проф., академик


Ш.Н. Қиёмов
Учбовий секретарь научного совета
по присуждению учёных степеней,
д.т.н., с.н.с


Х.С. Бекназаров
Председатель научного семинара
при научном совете по присуждению
учёных степеней, д.т.н., проф.

ВВЕДЕНИЕ (аннотация к диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и необходимость темы диссертации. В последние годы во всем мире растет спрос на эффективные технологии очистки промышленных отходов и сточных вод. Поэтому большое внимание уделяется иммобилизации реагентов, экономически эффективному сорбционно-спектроскопическому определению ионов Cu(II) и Zn(II) в промышленных сточных водах с использованием некоторых азотсодержащих реагентов, оптимизации существующих методов.

С развитием производства продукции химической промышленности в мире проводится множество научных исследований по очистке промышленных отходов и сточных вод. В этой связи важное значение приобретают получение новых сорбентов на основе иммобилизации органических реагентов, выделение металлов из растворов с помощью комплексообразующих сорбционных методов, определение состава, структуры, физико-химических свойств комплексообразующих соединений, образующихся в процессе сорбции, разработка технологии процесса синтеза и обоснование экономической эффективности получения продуктов.

В республике достигаются определенные научные и практические результаты в производстве продукции химической промышленности, в частности, в селективном извлечении металлов из растворов и получении сорбентов, применяемых для очистки промышленных сточных вод от вредных металлов. В новой стратегии развития Узбекистана определены важные задачи по «широкому внедрению инноваций в экономику, развитию кооперативных связей промышленных предприятий и научных учреждений, увеличению ассортимента продукции с высокой добавленной стоимостью за счет глубокой переработки меди и цинка»². В связи с этим важное значение приобретает получение селективных сорбентов на основе иммобилизации органических реагентов и исследование с их помощью комплексных соединений, образующихся при сорбции d-металлов.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит для реализации задач, указанных в Указе Президента Республики Узбекистан от 7 февраля 2017 года № УП-4947 "О стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан", в Постановлении Президента от 25 октября 2018 года ПП №-3983 "О мерах по ускоренному развитию химической промышленности Республики Узбекистан", от 3 апреля 2019 года ПП №-4265 "О мерах по дальнейшему реформированию химической промышленности и повышению ее инвестиционной привлекательности" и других нормативно-правовых актов, относящихся к данной деятельности.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий Республики Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетными направлениями науки и технологии республики VII. «Химические технологии и нано технологии».

² Указ Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года ПФ-60 «О новой стратегии развития Узбекистана на 2022-2026 годы»

